

Date: 23rd January-2025

ODAM SAVDOSI QURBONLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi

International school of finance technology

and science instituti stajor-o'qituvchisi

Elektron pochta: Xurshidyulchiboyev@gmail.com

Annotatsiya: Odam savdosi muammolari bugungi kunda ham mahalliy, ham xorijiy olimlar tomonidan o'rganilayotgan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Odam savdosi qurbonlari soni oshayotganligi, ayniqsa ular o'rtasida ayollar ko'pchilikni tashkil etishi jamiyatning dolzarb muammosi hisoblanadi. Maqolada odam savdosi qurboni bo'lgan shaxslarda kuzatiladigan stress va uning psixologik korreksiyasi borasidagi izlanishlar tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Odam savdosi, travma, stress, jablanuvchi, psixolog, konsultatsiya, zo'ravonlik, buzulish, individuallik, qo'rquv, ozodlik, g'azab, agressiya, tajovuz.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF TRAFFICKING VICTIMS

Abstract: The problems of human trafficking are one of the important topics studied by both domestic and foreign scientists today. The increasing number of victims of human trafficking, especially the majority of women among them, is an urgent problem of society. The post-traumatic stress and its psychological and social characteristics are highlighted in the article.

Keywords: Human trafficking, trauma, stress, victim, psychologist, counseling, violence, disruption, individuality, fear, freedom, anger, aggression.

Kirish. Odam savdosi insoniyat sivilizatsiyasiga, jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'diradi. Afsuski, dunyo bo'ylab keng qamrovli faoliyat, tegishli targ'ibot- tashviqot ishlari olib borilishiga qaramay, har yili millionlab insonlar "zamonaviy qullik", ya'ni odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Ular orasida ayollar, keksalar, hatto yosh bolalar ham borligi achinarli. BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har yili taxminan 2 milliondan ortiq inson odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotgan yillik daromad miqdori 7 milliard AQSh dollaridan oshib ketgan. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayollar va bolalardir. Har yili dunyo bo'yicha 600-800 ming nafar ayol va bola aldov yo'li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda. [1,b-1]

Odam savdosi qurbonlarining aksariyati bir yoki bir nechta travmatik hodisalarni boshdan kechirishadi. Ushbu reaksiyalarni tushunish uchun birinchi navbatda travma va stress nima ekanligini tushunish kerak.



Date: 23rd January-2025

“Travmaning mohiyati shundaki, u jabrlanuvchida moslashishning psixologik va biologik mexanizmlarini ishdan chiqaradi. Bu tashqi tahdidni yengish uchun ichki va tashqi resurslar yetarli bo‘lmasda sodir bo‘ladi”. [2, b-18]

Profssor E.G‘oziyevning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og‘ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me‘yoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug‘ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqishlar sifatida ko‘rsatiladi.[3,b-237]

Odam savdosi qurbonlari boshdan kechiradigan travmatik ta’sirlar ko‘pincha murakkab, ko‘p va uzoq vaqt davomida sodir bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina odam savdosi qurbonlari uchun zo‘ravonlik yoki boshqa travmatik hodisalar odam savdosi qurboniga aylanishdan ancha oldin boshlangan bo‘lishi mumkin.

Asosan travmadan keyingi stress urush, tabiiy ofatlar va zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlaridan jabr ko‘rgan va omon qolgan shaxslarda kuzatiladi. Posttravmatik stress asosan qisqa muddat davomida odam savdosi qurboni bo‘lgan yoki zo‘ravonlikka uchragan shaxslarda kamdan-kam xollarda kuzatilishi mumkin. O‘rtacha va yengil jarohatlardan farqli o‘laroq, posttravmatik stress uzoq vaqt davom etgan, takroriy jarohatlarning ta’siri faqat jabrlanuvchi asirda, qochib qutula olmay, jinoyatchining doimiy nazorati ostida bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Bu kabi holatlarga qamoqxonalarda, konslagerlar va koloniyalarda qolib ketish kiradi. Bu oqibatlar ayrim diniy jamoalar, fohishaxonalar va jinsiy ekspluatatsiya bilan shug‘ullanadigan boshqa tuzilmalarda, shu jumladan oilalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Odam savdosi bilan bog‘liq jarohatlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan, ammo ular yetarli emas. Hozirgi vaqtda olib boriladigan tadqiqotlarda asosan jinsiy savdoga e’tibor qaratilmoqda, lekin har doim ham qurbonlarning kelib chiqishini o‘rganish, ularning umumiy va xos qiyofasini yaratish uchun buning o‘zigina yetarli bo‘lmaydi. Chunki, bu tadqiqotlar natijasida odam savdosi qurbonlarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan travmalar haqida aniqlangan umumiy ma’lumotlar va butun dunyo bo‘ylab o‘rganilgan individual holatlardan olingan ma’lumotlar bilan birgalikda taqqoslanib ko‘rib chiqiladi va bir qator tavsiyalar va xulosalar beriladi.

Odam savdosi qurboni bo‘lgan ikki shaxsning travmalari bir-biriga o‘xshamaydi va odam savdosining ta’siri har bir insonga turlicha ta’sir qiladi. Ma’lum bir shaxs odam savdosi qurboni bo‘lgandan keyin unda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini oldindan aytib bo‘lmaydi. Shu sababli ham odam savdosidan jabr ko‘rgan shaxslar bilan ishlaydigan psixolog har bir shaxsga individual yondashishi va u ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo‘ladi.

Kuzatuvlar natijasida odam savdosidan jabr ko‘rgan odamlarda buzilishning uch xil turi aniqlangan:

Birinchi turi simptomatik buzulishdir: Uzoq muddatli travmatik vaziyatlarni boshdan kechirgan va omon qolgan odamlar boshidan o‘tqazadigan simptomatik buzulishlar ancha murakkab va chuqurroq xarakterli ekanligi bilan belgilanadi.



Date: 23rd January-2025

Ikkinchi turi xarakterdagi o'zgarishlar bilan bog'liq: Buzulishning bu turi travmani boshdan o'tqazgan shaxslarning xarakterida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, shuningdek, atrofdagi jamiyat bilan munosabatlardagi kelishmovchiliklar va shaxsiyatning buzilishi bilan belgilanadi.

Uchinchi turi odam savdosidan jabr ko'rgan odamlarda yana shunday vaziyat ishtirokchisiga aylanishga bo'lgan qo'rquvning yuqoriligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib odam savdosi qurboni bo'lgan shaxslarda kuzatiladigan travmadan keying stress belgilari quyidagilardan iborat:

Somatik belgilar: juda uzoq davom etadi va vaqt o'tishi bilan kuchayishi mumkin.

- Uyqusizlik;
- Har qanday ishni qaytadan boshlashga nisbatn reaksiya yo'qligi;
- Bosh og'rig'i;
- Oshqozon va oshqozon-ichak kasalliklari;
- Yelka og'rig'i;
- Bo'g'ilish va ko'ngil aynishi;

Ijtimoiy hayotdan uzoqlashish: Bu odamning ongidagi chidab bo'lmas va og'riqli o'zgarishlarning bir shakli,

- maqsad qo'yish, idrok jarayonlaridagi buzulish;
- zo'ravonlikni kam baholash, minimallashtirish va yoki to'liq rad etish;
- vaqtni idrok etishning buzilishi;
- xotira va konsentratsiyaning buzilishi;
- o'zidan jirkanish hissi;
- o'tmish va kelajak o'rtasidagi aloqaning yo'qligi;

Ko'pincha jabrlanuvchi allaqachon ozodlikka chiqqan bo'lsa ham, o'zlarini hali ham mahbusdek his qilishda davom etadi. Ular o'zlarini jismonan ozodlikka chiqqanlarini his qilsalarda, lekin psixologik jihatdan tutqunlikda bo'lgan paytda qolib ketgandek tutishadi.

Sobiq garovga olinganlar ozod qilinganidan keyin ham o'zidan kuchliroq bo'lgan shaxslarga nisbatan norozilikning har bir ko'rinishi uchun jazolanishdan qo'rqishda davom etadilar. Bundan tashqari, jabrlanuvchilar o'zlariga befarq bo'lgan yoki hech qanday yordam ko'rsatmaganlarga nisbatan noroziliklarga ega. Salbiy his-tuyg'ularni nazorat ostida ushlab turishga qaratilgan urinishlar ijtimoiy rad etishni kuchaytirishi va shaxsning ijtimoiy xatti-harakatlarini o'zgartirishi va tashabbuskorlikning namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. G'azab va agressiya qurbonlarni boshqa odamlardan uzoqlashtirishi va ular bilan munosabatlarning tiklanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. O'zida bu g'azabni bostirish jabrlanuvchiga katta zarar yetkazishi va suitsudal holatlarga olib kelishi mumkin.

Travmani boshdan kechirgan jabrlanuvchi shaxs psixolog huzurida bo'lganda 2 xil munosabatni namoyon qilishi mumkin:

Birinchi toifa odamlar psixologni qutqaruvchi sifatida ko'radi va psixolog bilan ishonchli munosabatlar o'rnatadi.



Date: 23rd January-2025

Ikkinchi toifa odamlar esa psixologni faqat noo‘rin va og‘riqli savollar beruvchi odam sifatida ko‘radi. Psixologga ishonchsizlik bilan qaraydi. Bu esa o‘zi qiyin bo‘lgan vaziyatni yanada og‘irlashtirishi mumkin.

Shuni ta‘kidlash lozimki, agar jabrlanuvchi dushmanlik yoki tajovuzkorlik bilan munosabatda bo‘lsa, bu uning boshdan o‘tkazgan travmalari ta‘siri ostida bo‘lishi mumkin. Ya‘ni agressiya aslida psixologga qaratilgan bo‘lmaydi. Jabrlanuvchi travmadan keying stress holatini boshdan o‘tkazayotgan bo‘lishi mumkin va bu holat ancha uzoq vaqt davom etishi ham ehtimoldan holi emas. Ushbu holat maslahatchi psixologdan yetarlicha amaliy bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Ehtimol, qurbonlar boshiga tushgan travmalarni tushunish, yengish uchun bunday taktika va his-tuyg‘ularni o‘zida his qilib ko‘rishga ham to‘g‘ri kelishi mumkin.

Umumiy xulosa va yechimlar. Har bir jabrlanuvchi psixologik maslahat jarayoniga dushmanlik bilan munosabatda bo‘lmaydi, lekin ushbu vaziyatlarga duchor bo‘lish ehtimoldan holi emas. Bu kabi vaziyatlarda psixolog o‘zini yoki jabrlanuvchini ayblashi mutlaqo yechim bo‘la olmaydi. Jabrlanuvchidagi dushmanlik kayfiyatini salbiy qabul qilish ishni yanada qiyinlashtirishi mumkin. Agar psixolog jabrlanuvchidagi agressiyani o‘ziga qartailgan deb qabul qilsa va o‘zini ham shunday tutsa jabrlanuvchi bilan kontakt o‘rnatishga erishish dargumon.

Psixolog suhbatning birinchi bosqichidayoq jabrlanuvchini so‘roq qilishni boshlasa va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsga aloqador savollar berishni boshlasa, bu jabrlanuvchini begonalashtirishi va undan uzoqlashishi mumkin. Agar psixolog jabrlanuvchining so‘zlari rostligiga ishonmasa, unga nisbatan shubhali munosabatda bo‘lsa, uning hissiyotlariga shubha bildirsa yoki ishonchsizlik alomatlarini ko‘rsatsa, bu jabrlanuvchida o‘ziga nisbatan kamsitilishdek taassurot qoldirilishi mumkin. Jabrlanuvchining mudofaa pozitsiyasiga o‘tishi va suhbat uchun yoplib olishiga olib kelishi mumkin. Bu esa hamkorlik uchun barcha umidlarni yo‘q qilishi mumkin.

Qanday bo‘lmasin, psixolog bu yondashuvdan qochishi talab etiladi. Muvozanatli, uslubiy va bag‘rikenglik bilan yondashish, nima bo‘lishidan qat‘i nazar, haqiqatni ochib berishga yordam beradi. Psixologni tashvishlantirayotgan yoki shubhaga solayotgan muammolarni aniqlashtirish uchun mijoz bilan mustahkam kontakt o‘rnatib olingandan keyin ham imkoniyat bo‘ladi. Psixolog birinchi marta odam savdosi qurbonlari kabi uzoq muddatli zo‘ravonlikni boshdan kechirgan odamlar bilan konsultatsiya ishlarini olib borayotgan bo‘lishi mumkin. Biroq, jabrlanuvchida kuzatilayotgan ba‘zi elementlar psixolog ilgari duch kelgan holatlarga o‘xshashlik kuzatilishi mumkin. Masalan surunkali oilaviy zo‘ravonlik qurbonlari, jinsiy tajovvuz va zo‘rlashni boshdan kechirgan, og‘zaki haqorat, shafqatsiz muomala va erkinlikni cheklash yoki og‘ir xastalik sababli bir joyda qolib ketish kabi holatlarni boshdan o‘tkazgan shaxslar travmalari bilan o‘xshash bo‘ladi.

Ba‘zi jabrlanuvchilar (odam savdosi jarayonidan oldin yoki davomida) boshdan kechirgan psixologik travma darajasi shunchalik yuqori bo‘lishi mumkinki, bu odamlar bilan psixologik konsultatsiya hech qachon natija bermasligi ham mumkin. Bunday vaziyatlarda agar kerak bo‘lsa, suhbatni to‘xtatishga va jabrlanuvchiga tez yordam



Date: 23rd January-2025

chaqirishga doimo tayyor bo'lish kerak. Boshqa tomondan, dastlab kuchli hissiy reaksiyalarni ko'rsatadigan ba'zi odamlar, vaqt o'tishi bilan, professional yordam va maslahat natijasida tez hayotga qaytib ketishlari ham mumkin. Albatta bu qattiq mehnat va uzoq vaqt talab etadigan jarayon hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m8278>
2. Saporta J. and B.A. van der Kolk. Psychobiological consequences of trauma, in Torture and its consequences: Current treatment approaches, M. Basoglu, Editor. 1992, Cambridge University Press: Cambridge
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya darslik.T.: Nizomiy nomidagi TDPU - 2010

